



Ryaska(Lemna) suv oʻsimliklarini hovuz sharoitida koʻpaytirish va hosilini yigʻib olish

Shavkatova Xolisxon Doniyor qizi -Abu-Rayhon nomidagi Urganch Davlat universiteti Biologiya yoʻnalishi magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ryaska suv oʻsimliklarini tabiiy va hovuz sharoitida koʻpaytirish usullari haqida maʼlumot berilgan. Bunda qanday sharoitda va qaysi materiallar asosida hovuzlar qurish undan qanday foydalanish hamda ryaskani koʻpaytirish va hosilini yigʻib olish chora tadbirlari boʻyicha amaliy ish natijalari bayon qilingan..

Kalit soʻzlar: Kichik ryaska (Lemna minor (L)),Koʻp ildizli oddiy ryaska yoki spirodela (Spirodela ptyrrhizo (L)),Bukri yoki oʻrkachli ryaska (Lemna gibba (L)),sim toʻr ,biologik hovuz.

Аннотация. В данной статье представлена информация о способах размножения водных растений Ряска в естественных и прудовых условиях. При этом изложены результаты практических работ по строительству прудов в каких условиях и на основе каких материалов, как их использовать, а также мероприятия по увеличению ряска и уборке урожая.

Ключевые слова: Малая ряска (Lemna minor (L)), Многокорневая ряска обыкновенная или спиродела (Spirodela ptyrrhizo (L)), Горбатая или горбатая ряска (Lemna gibba ((L)), проволочная сетка, биологический пруд

Abstract. This article provides information on methods of breeding Pyaska aquatic plants in natural and pond conditions. In this case, the results of practical work on the construction of ponds under what conditions and on the basis of what materials, how to use them, as well as measures to increase the number of roaches and harvest the yield are described.

Keywords: Small catfish (Lemna minor (L)), Multi-rooted common catfish or spirodela (Spirodela ptyrrhizo (L)), Bent or humped catfish (Lemna gibba (L)), wire mesh, biological pond.

Kirish. Aholining goʻsht, sut, tuxum va boshqa oziq-ovqat mahsulotlariga boʻlgan ehtiyojini qondirish uchun chorvachilik va parrandachilikni sanoat asosida rivojlantirish yoʻlga qoʻyilmoqda. Yaqin yillar ichida mamlakatimizda fermer xoʻjaliklari,klasterlar jadal ravishda rivojlanmoqda, ayniqsa chorvachilik,parrandachilik va baliqchilikka ixtisoslashgan fermer xoʻjaliklari



tashkil qilinmoqda. Bu chorva mollari, parranda va baliqlarni boqish uchun tarkibi sifatli omuxta yem va qo`shimcha oзуqalar bilan ta`minlash kerak. Bu oзуqlarni bozordan sotib olish fermerlar uchun ancha iqtisodiy qimmatga tushishi mumkin. Shu sababli qo`shimcha oзуqa sifatida oqsilga boy yuksak o`simliklar gurihiga kiruvchi ryaska, azolla, pistiya va eyxorniya o`simliklaridan foydalanish mumkin. Bu o`simliklarni tabiiy va sun`iy sharoitda ko`paytirish hamda qo`shimcha oзуqa sifatida foydalanish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Natija va munozara. Ryaska oilasining ilmiy manbalarda O`zbekistonda, Kichik ryaska (*Lemna minor* (L)), Ko`p ildizli oddiy ryaska yoki spirodela (*Spirodela plyrrhizo* (L)), Bukri yoki o`rkachli ryaska (*Lemna gibba* (L)) kabi turlari borligi ko`rsatrilgan. Bu turlar respublikamizning ko`pchilik shuv havzalariga madaniylashib ketgan. Bu o`sumliklarni sun`iy sharoitda akvariumda, plastik, tunika idishlarda va ochiq sharoitda turli xil hovuzlarda ko`paytirish mumkin.

Ryaskani o`stirish uchun hovuz tayyorlash va ko`paytirish. Ryaska o`stiriladigan hovuz qurish uchun ekin ekishga yaroqsiz bo`lgan yerlardan ham foydalanish mumkin. Buning uchun yer 100-120 sm chuqurlikda qazilib, tagiga tosh-shag`al yotqiziladi, yonlariga esa bir qator pishiq g`isht teriladi yoki beton yuqorida qolgan bo`sh qismi o`ftob nurini yig`adi, sement, qum qorishmasi bilan yaxshilab suvaladi. Hovuz chuqurroq bo`lgani ma`qul, chunki harorat past bo`lgan paytlarda hovuzga 15-20 sm qalinlikda suv solinsa, yuqorida qolgan bo`sh qismi o`ftob nurini yig`adi, sementlangan devorlar ham isib ryaska o`sayotgan muhitda haroratning ancha ko`tarilishiga yordam beradi. Kunlar o`ta issiq bo`lgan paytlarda esa suvning qalinligi 70-80 sm ga yetkazilsa, suv harorati pasayishi mumkin. Ryaska ekish uchun har qanday suv (ariq, vodoprovod, oqova) dan foydalanish mumkin, lekin neft mahsulotlari ko`p bo`lgan suv yaroqsizdir. Neft mahsulotlari ryaskaning o`sishiga va biomassasiga aralashgan bo`lsa, ryaska bilan ovqatlangan parranda yoki hayvonga ham salbiy ta`sir qilishi mumkin. Bunday suvni avval qumli filtrlardan o`tkazib, neft mahsulotlaridan tozalash kerak. O`sayotgan ryaska ustiga kuniga 2-5 marta suv yomg`ir kabi purkalsa, ryaska hosili yanada oshadi va sifati yaxshilanadi. Buning ustiga ryaska bargpoyasining ustida joylashgan ko`p sonli mayda labchalar changdan tozalanadi, o`simlikda havo almashinish yaxshilanadi va fotosintez jarayoni tezlashadi. Hovuz balandroq joyga qurilib, uning tagidan suv chiqib ketadigan truba qo`yilsa, muhit juda eskirib qolganda yoki yomg`ir yog`ib hovuzdan suv tashish xavfi tug`ilganda bu kran ochilib, suvning hammasini yoki bir qismini chiqarib yuborish mumkin.



Ryaskani hosilini yig`ib olish. O`sayotgan ryaska hosilining 25-30% ini sharoitga qarab har kuni yoki 2-3 kunda yig`ib olib turish zarur. Ryaskani yig`ish uchun hovuzning kengligiga teng qilib mayda teshikli (ryaska o`tib ketmaydigan) sim to`rdan yasalgan suzgichdan foydalanish mumkin. Bu suzgich to`r ustiga suvga cho`kib ketmasligi uchun po`pak o`tkaziladi, tagiga esa metall halqachalar bog`lab qo`yish kerak. Undan elektromotor yoki qo`l bilan aylantirib foydalanish mumkin. Bundan tashqari, shu sim to`rdan diametrik 50-60 sm, dastasining uzunligi 1,5-2 m bo`lgan suzgich ham yasash mumkin.

Xulosa. Chorvachilik sohasida yem- xashak muammosi hamma vaqt dolzarb muammo bo`lib kelgan. Yem-xashakni bozordan sotib olish fermer uchun iqtisodiy qimmatga tushadi. Shuning uchun bu muammoni hal qilishda fermerlar yem-xashak va boshqa ozuqa manbalarini o`zlari yetishtirishlari va tayyorlashlari kerak bo`ladi. Bunda yuqorida qayd qilinganidek ryaska ,pistiya, azolla va eyxorniya kabi iqlimlashtirilgan o`simliklardan foydalanish o`ta samarali natija beradi.

Bunday o`simliklarni katta ko`l , hovuz va zovurlarda emas, balki oddiy sharoitlarda ham bemalol ko`paytirish mumkin. Bunda ular oddiy organik o`g`itlar (go`ng, biogumus, kompos,) bilan oziqlantirilsa juda tez ko`payadi va yuqori hajmli oziq moddalarga boy biomassa hosil qiladi. Bu biomassaning to`g`ridan to`g`ri o`zidan yoki omuxta yem-xashak sifatida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adbiyotlar

1. K.R. Yo`ldashev, X.D. Shavkatova, M.M. Axmedova, S.B. Abdullayeva. Ryaska doshlarlarning tur tarkibi, bioekologik xususiyatlari va undanozuqa manbai sifatida foydalanish (Xorazm viloyati misolida). CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD. Volume 01, Issue 10, 2024.

2. Bo`riyev S.B, Jalolov E.B, Yo`ldoshov L.T. (2020). Ryaska va pistiya o`simliklarini chorvachilikda, parrandachilikda hamda baliqchilikda qo`llash. O`zbekiston respublikasi hududidagi suv xavzalarida o`suvchi tuban va yuksak suv o`simliklarini ko`paytirish, ularni xalq xo`jaligida qo`llash. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Buxoro, 2020.-B.13-15.

3. Xolmurodova T.N. Yuksak suv o`simliklari va ulardan foydalanish istiqbollari // Mikroskopik suvo`tlari va yuksak suv o`simliklarni ko`paytirish, ularni xalq xo`jaligida qo`llash // Res. konf. –Buxoro, 2018. –B. 111-116.